



## 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

**5 079,0**  
mlrd. so'm

**115,1 %**


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida

Navoiy viloyatida jami **5 079,0** mlrd.so'mlik


qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan  
**115,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda**

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 685 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **112,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **51,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **107,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **103,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **41,5 %**) o'sishidir.




**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

|  |                  | Holatiga ko'ra: |                 | O'tgan yilga nisbatan, % da |
|--|------------------|-----------------|-----------------|-----------------------------|
|  |                  | 01.01.2021- yil | 01.01.2022- yil |                             |
|  | Navoiy viloyati  | 1 560           | 1 685           | 108,0                       |
|  | Navoiy sh.       | 433             | 482             | 111,3                       |
|  | Zarafshon sh.    | 125             | 149             | 119,2                       |
|  | G`ozg`on sh.     | -               | 3               | -                           |
|  | <i>tumanlar:</i> |                 |                 |                             |
|  | Karmana          | 253             | 274             | 108,3                       |
|  | Konimex          | 39              | 42              | 107,7                       |
|  | Qiziltepa        | 233             | 252             | 108,2                       |
|  | Navbahor         | 189             | 183             | 96,8                        |
|  | Nurota           | 99              | 109             | 110,1                       |
|  | Tomdi            | 42              | 42              | 100,0                       |
|  | Uchquduq         | 51              | 49              | 96,1                        |
|  | Xatirchi         | 96              | 100             | 104,2                       |




**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarini soni,  
2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy shahri (28,6 %), Karmana (16,2 %) va Qiziltepa (15,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1 291,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,4** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **25,4** % ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar- dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**



■ ulushi, % da      ■ o'sish sur'ati, % da




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **54,7 % ni**), Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,7 % ni**) va Qiziltepa tumaniga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,7 % ni**) to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlaringning umumiylajmi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **46,8 %** ga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,6** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **119,7 %** ni tashkil etgan holda **2 377,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,8 %** ni tashkil etdi yoki **1 411,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **109,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **893,7** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 185,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **18,3 %** va **81,7 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

|                        | Qurilish ishlari<br>hajmi,<br>mlrd. so'm | Nodavlat mulki |                 | Davlat mulki  |                 |
|------------------------|--|----------------|-----------------|---------------|-----------------|
|                        |  | mlrd.<br>so'm  | Ulushi,<br>% da | mlrd.<br>so'm | Ulushi,<br>% da |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>5 079,0</b>                           | <b>4 150,1</b> | <b>100,0</b>    | <b>928,9</b>  | <b>100,0</b>    |
| Navoiy sh.             | 1 206,8                                  | 990,4          | 23,9            | 216,4         | 23,3            |
| Zarafshon sh.          | 1 051,3                                  | 374,0          | 9,0             | 677,3         | 72,9            |
| <i>tumanlar:</i>       |  |                |                 |               |                 |
| Karmana                | 530,0                                    | 530,0          | 12,8            |               |                 |
| Konimex                | 87,9                                     | 87,9           | 2,1             |               |                 |
| Qiziltepa              | 814,9                                    | 814,9          | 19,6            |               |                 |
| Navbahor               | 374,9                                    | 374,9          | 9,0             |               |                 |
| Nurota                 | 300,9                                    | 300,9          | 7,3             |               |                 |
| Tomdi                  | 48,9                                     | 48,9           | 1,2             |               |                 |
| Uchquduq               | 72,3                                     | 72,3           | 1,7             |               |                 |
| Xatirchi               | 591,1                                    | 555,9          | 13,4            | 35,2          | 3,8             |

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik  
qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-dekabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi bino va inshootlarni  
qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 77,7 % ni yoki  
**3 949,5 mlrd. so‘m** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab  
chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni  
yaratishga qaratilgan.

77,7%

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **1 291,0 mlrd.**  
so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi  
25,4 % ni tashkil etdi.

25,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha  
yangi qurilish hisobidan **2 377,0 mlrd. so‘m**  
yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning  
yangi qurilish ishlaridagi ulushi 46,8 % ni  
tashkil etdi.

46,8 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy  
sektor hissasi **1 411,0 mlrd. so‘m**  
yoki ularning jamiga nisbatan  
ulushi 27,8 % ni tashkil etdi.

27,8%




**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

|                        | <b>Qurilish<br/>ishlari<br/>hajmi<br/>(mlrd. so‘m)</b> | <b>O‘sish sur’ati,<br/>% da</b> | <b>Umumiy hajmdan<br/>yangi qurilish,<br/>rekonstruksiya,<br/>kengaytirish, texnik<br/>qayta qurollantirish<br/>(mlrd. so‘m)</b> |
|------------------------|--|---------------------------------|--|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>5 079,0</b>   | <b>115,1</b>                    | <b>3 912,0</b>   |
| Navoiy sh.             | 1 206,8  | 105,7                           | 1 032,8  |
| Zarafshon sh.          | 1 051,3  | 120,2                           | 833,3  |
| <i>tumanlar:</i>       |  |                                 |  |
| Karmana                | 530,0  | 114,3                           | 391,2  |
| Konimex                | 87,9   | 123,7                           | 43,0   |
| Qiziltepa              | 814,9  | 126,6                           | 606,4  |
| Navbahor               | 374,9  | 110,4                           | 266,0  |
| Nurota                 | 300,9  | 113,3                           | 219,1  |
| Tomdi                  | 48,9   | 192,4                           | 19,6   |
| Uchquduq               | 72,3   | 118,0                           | 58,7   |
| Xatirchi               | 591,1  | 112,3                           | 442,1  |

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari**



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **28,7 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,5** punktga ko'payib, **61,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-dekabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **5,6** punktga kamayib, **10,1 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **0,9 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,6 % (2,8 % ko'payish)** ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **5,7 %** ga kamaydi va **50,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **49,1 %** ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **19,3 %** ga ko'paydi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-dekabr oylarida**

*mldr. so'm*


|                        | Qurilish<br>ishlari hajmi | shu jumladan:                      |                                      |   |
|------------------------|---------------------------|------------------------------------|--------------------------------------|---|
|                        |                           | Bino va<br>inshootlar<br>qurilishi | Fuqarolik<br>obyektlari<br>qurilishi | Ixtisoslash-<br>tirilgan<br>qurilish<br>ishlari |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>5 079,0</b>            | <b>3 949,5</b>                     | <b>689,3</b>                         | <b>440,2</b>                                    |
| Navoiy sh.             | 1 206,8                   | 915,6                              | 198,7                                | 92,5  |
| Zarafshon sh.          | 1 051,3                   | 635,3                              | 215,9                                | 200,1   |
| <i>tumanlar:</i>       |                           |                                    |                                      |   |
| Karmana                | 530,0                     | 453,4                              | 49,4                                 | 27,2  |
| Konimex                | 87,9                      | 75,2                               | 9,2                                  | 3,5   |
| Qiziltepa              | 814,9                     | 704,0                              | 80,6                                 | 30,3  |
| Navbahor               | 374,9                     | 309,1                              | 38,0                                 | 27,8  |
| Nurota                 | 300,9                     | 256,6                              | 22,8                                 | 21,5  |
| Tomdi                  | 48,9                      | 42,8                               | 3,3                                  | 2,8   |
| Uchquduq               | 72,3                      | 45,1                               | 14,9                                 | 12,3  |
| Xatirchi               | 591,1                     | 512,4                              | 56,5                                 | 22,2  |

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishining jami qurilish ishlariiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarinining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 87,6 % ni yoki **42,8** mlrd. so'm), shuningdek, Xatirchi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 86,7 % ni yoki **512,4** mlrd. so'm), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 86,4 % ni yoki **704,0** mlrd. so'm) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 20,6 % ni yoki **14,9** mlrd. so'm), Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 20,5 % ni yoki **215,9** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 16,5 % ni yoki **198,7** mlrd. so'm) qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishining  
jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining  
jami qurilish ishlariga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 19,0 % ni yoki **200,1** mlrd. so'm), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,0 % ni yoki **12,3** mlrd. so'm), Navoiy shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 7,7 % ni yoki **92,5** mlrd. so'm) qayd etildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. so‘mda)

**Navoiy sh.**  
**1 206,8**



**Zarafshon sh.**  
**1 051,3**



**Qiziltepa t.**  
**814,9**



**Xatirchi t.**  
**591,1**



**Ma’lumot uchun:** Qurilish

ishlarining eng yuqori hajm ko‘rsatkichi  
Navoiy shahri (1 206,8 mlrd.so‘m),  
Zarafshon shahri (1 051,3 mlrd.so‘m),  
Qiziltepa (814,9 mlrd.so‘m), Xatirchi  
(591,1 mlrd.so‘m) tumanlariga to‘g‘ri  
keladi.

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo‘limi

Tel.: (71) 202-85-20; (79) 223-54-73